

---

## Storytellingning tarixiy rivoji va zamonaviy til o'qitishdagi didaktik ahamiyati

Saydikramova Umida Xamidullayevna  
[umidakhakimova1@gmail.com](mailto:umidakhakimova1@gmail.com)  
Dotsent,  
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat  
Texnika Universiteti

**Annotatsiya** Ushbu maqolada storytellingning ijtimoiy-madaniy ildizlari, uning filologik va pedagogik mazmundagi o'rni, shuningdek zamonaviy til o'qitish jarayonidagi didaktik ahamiyati keng ko'lamda ilmiy tahlil etiladi. Hikoya qilish insoniyat tafakkurining eng qadimiy shakllaridan biri sifatida milliy xotira, ma'naviy qadriyatlar, axloqiy mezonlar va madaniy merosni avloddan-avlodga yetkazuvchi samarali vosita ekani turli ilmiy manbalar asosida asoslanadi. Maqolada og'zaki an'ananing tarixiy taraqqiyoti, "Panchatantra", "Iliada", "Odisseya" kabi epik matnlar misolida narrativ san'atning shakllanish jarayoni va uning xalq og'zaki ijodi bilan uzviy bog'liqligi yoritiladi. Shuningdek, XX–XXI asrlarda hikoya metodiga pedagogikada yangicha ilmiy yondashuvlar paydo bo'lgani, "narrativ pedagogika" konsepsiyasining shakllanishi, multimodal ta'lim vositalarining kengayishi hamda "raqamli hikoya aytish" texnikasining o'quv jarayoniga kirib kelishi batafsil tahlil qilinadi. Storytellingning kommunikativ yondashuv bilan integratsiyalashuvi, talabalarning motivatsiyasi, ijodiy tafakkuri, tanqidiy fikrlashi, madaniyatlararo kompetensiyasi va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi didaktik salohiyati ilmiy asosda ochib beriladi. Tadqiqotda, shuningdek, talabalarning hikoya tinglash va yaratish faoliyatini baholash mezonlari, reflektiv yozuvlar, portfoliolar va ijodiy loyihalar orqali aniqlanib, storytellingni an'anaviy ma'ruza asosidagi o'qitishdan farqlovchi afzalliklar va cheklovlar taqqosiy tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar** Storytelling, og'zaki an'ana, narrativ pedagogika, kommunikativ yondashuv, til o'qitish metodikasi, madaniy kontekst, digital storytelling

---

## Историческое развитие сторителлинга и его дидактическое значение в преподавании современного языка

Сайдикрамова Умида Хамидуллаевна  
[umidakhakimova1@gmail.com](mailto:umidakhakimova1@gmail.com)  
Доцент,  
Ташкентский государственный  
технический университет имени  
Ислама Каримова

**Аннотация** В данной статье всесторонне анализируются социально-культурные истоки сторителлинга, его филологическое и педагогическое значение, а также дидактическая роль в современном процессе обучения языкам. Сторителлинг рассматривается как одна из древнейших форм человеческого мышления и как эффективное средство передачи национальной памяти, духовных ценностей, нравственных ориентиров и культурного наследия из поколения в поколение, что подтверждается различными научными источниками. В статье освещается историческое развитие устной традиции и процесс формирования нарративного искусства на примере таких эпических произведений, как «Панчатантра»,

«Илиада» и «Одиссея», подчёркивается его тесная связь с народным устным творчеством. Кроме того, рассматриваются новые научные подходы XX–XXI веков, появление концепции «нарративной педагогики», расширение мультимодальных образовательных средств и интеграция технологий «цифрового сторителлинга» в учебный процесс. Отдельное внимание уделяется тому, как сторителлинг сочетается с коммуникативным подходом и способствует развитию мотивации студентов, их творческого и критического мышления, межкультурной и речевой компетентности, что раскрывает его высокий дидактический потенциал. В исследовании также описываются критерии оценки деятельности учащихся по восприятию и созданию рассказов с использованием рефлексивных записей, портфолио и творческих проектов, что позволяет сравнительно проанализировать преимущества и ограничения сторителлинга по сравнению с традиционным лекционным обучением.

**Ключевые слова**      Сторителлинг, устная традиция, нарративная педагогика, коммуникативный подход, методика обучения языку, культурный контекст, цифровой сторителлинг

---

## The history of storytelling and its didactic significance in modern language teaching

**Saydikramova Umida Khamidullaevna**  
[umidakhakimova1@gmail.com](mailto:umidakhakimova1@gmail.com)  
Associate Professor,  
Tashkent State Technical University named  
after Islam Karimov

**Annotation**      *This article provides a comprehensive analysis of the socio-cultural origins of storytelling, its philological and pedagogical significance, and its didactic role in the modern language teaching process. Storytelling is considered one of the oldest forms of human thought and an effective means of transmitting national memory, spiritual values, moral guidelines, and cultural heritage from generation to generation, as confirmed by various scientific sources. The article highlights the historical development of the oral tradition and the process of the formation of narrative art using the example of such epic works as the Panchatantra, the Iliad, and the Odyssey, emphasizing its close connection with folk oral creativity. In addition, it examines new scientific approaches of the 20th and 21st centuries, the emergence of the concept of "narrative pedagogy," the expansion of multimodal educational tools, and the integration of "digital storytelling" technologies into the educational process. Special attention is paid to how storytelling combines with a communicative approach and contributes to the development of students' motivation, creative and critical thinking, intercultural and speech competence, which reveals its high didactic potential. The study further outlines criteria for assessing students' listening and story-creation activities through reflective writing, portfolios, and creative projects, allowing a comparative analysis of the advantages and limitations of storytelling in contrast to traditional lecture-based instruction.*

**Keywords**      *Storytelling, oral tradition, narrative pedagogy, communicative approach, language teaching methodology, cultural context, digital storytelling*

Storytelling (ingliz tilidagi "storytelling" atamasi) – qadimdan shakllanib kelgan ijtimoiy-madaniy hodisa bo'lib, u insoniyat tafakkurining eng barvaqt ko'rinishlaridan biri sifatida hikoyani yaratish, uni obrazli ifodalash va tinglovchi ongiga yetkazish san'atini o'zida mujassam etadi. Mazkur jarayonda nafaqat voqea bayoni, balki sahnalashtirish, dramaturgiya, estetik bezak singari qo'shimcha unsurlar ham muhim o'rin tutadi; ular hikoyaning ta'sir doirasini kengaytirib, uni yanada mazmundor qiladi.

Har bir xalqning madaniy xotirasida o'ziga xos syujetlar, afsonalar va rivoyatlar yashaydi. Ular nafaqat o'yin-kulgu yoki ko'ngilochar an'ana sifatida, balki ma'rifiy maqsadlarda, milliy merosni asrash va axloqiy qadriyatlarni avlodlardan avlodga yetkazish vazifasida ham xizmat qiladi (Lachman, 2017). Shu jihatdan hikoya qilish – o'qituvchining shunchaki nutqiy mahorati emas, balki ta'lim jarayonini mazmunan boyituvchi, shaxs ongiga bevosita ta'sir qiluvchi o'ziga xos pedagogik yondashuvdir.

Zamonaviy tilshunoslikda ham, psixolingvistika va didaktikada ham storytellingning o'рни alohida e'tirof etiladi. Tadqiqotchilar "Storytelling is the oldest form of teaching and probably the best way to learn" degan fikrni ta'kidlar ekan, hikoya qilish insoniyat bilish faoliyatining eng qadimiy, eng tabiiy va eng samarali usullaridan biri ekanini qayd etadilar (Stanley & Dillingham, 2011). Zero, hikoya orqali bilim berish – abstrakt qoidalarni emas, balki mazmunli obrazlarni, hayotiy tajribani, hissiy idrokni uzatish demakdir.

Filologik nuqtayi nazardan qaralganda, hikoya qilish – tilning semantik, pragmatik va madaniy qatlamlarini birlashtiruvchi noyob jarayon. U tilni kommunikativ vosita sifatida emas, balki badiiy-estetik hodisa sifatida namoyon etadi; shu bois storytelling turli madaniy muhitdagi va har xil yoshdagi talabalarga teng darajada ta'sir etish imkoniga

ega. Natijada, pedagoglar tomonidan mazkur metod o'quvchini fikrlashga, tasavvur qilishga, tilni mazmunli ravishda qo'llashga undaydigan samarali didaktik yondashuv sifatida qadrlanadi.

Og'zaki an'ana insoniyat tafakkurining eng qadimiy odatlaridan biri bo'lib, u turli xalqlarning madaniy xotirasini saqlash, uni avlodlardan avlodga uzatishning eng tabiiy shakli sifatida shakllangan. Britannica ensiklopediyasida ta'kidlaganidek, og'zaki an'ana "insoniyat tarixidagi eng ilk va eng ommaviy muloqot rejimi" bo'lib, yozuv kashf qilinishidan ancha avval mavjud bo'lgan (Encyclopaedia Britannica, 2025). Zero, dastlabki jamoalar o'z tarixini, urf-odatlarini va axloqiy mezonlarini na yozma matn, na belgilar orqali, balki faqatgina so'z va rivoyat vositasida mustahkamlab kelganlar.

Shu sababli, hikoya aytuvchilar – qissa va rivoyat sohiblari qadim jamiyatlarda nafaqat ma'naviy arbob, balki xalqning tarixiy xotirasini asrab qoluvchi tirik ko'prik vazifasini bajargan. Ular nutqiy san'atning o'ziga xos formulalari, takroriy strukturalar va obrazli tasvirlari yordamida murakkab voqealarni yodda saqlashni osonlashtirgan, shu tariqa irqiy, etnik va madaniy merosni barqaror holda avlodlarga yetkazganlar. Qadimgi yunonlarning "Iliada" va "Odisseya" singari epik asarlari ham aynan ana shunday og'zaki an'ananing mahsuli sifatida shakllangan bo'lib, ular keyinchalik jahon adabiy-estetik tafakkurining asosiy poydevorlaridan biriga aylangan (Bavajan & Shankar Yadav, 2024).

Demakki, hikoya aytish jarayoni bu faqat ma'lumot yetkazish emas, balki tarixiy xotirani jonli saqlovchi, milliy qadriyatlarni mustahkamlovchi, jamiyatni birlashtiruvchi kuchdir. Bugungi globallashtiruvchi sharoitida ham og'zaki an'ananing ahamiyati susaygani yo'q; aksincha, u milliy o'zlikni tiklash, madaniy rang-baranglikni asrash, jamoaviy ruhni mustahkamlashda o'zining betakror vazifasini davom ettirmoqda. Chunki og'zaki hikoya – bu

shunchaki so'z emas, balki xalq ruhining ifodasi, o'zligini anglash va uni avlodlar xotirasida saqlab qolishning kuchli ma'naviy vositasidir.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida hikoya aytish nafaqat og'zaki meros shakli, balki badiiy san'at sifatida ham yuksalib borgan. Turli xalqlar yaratgan ertaklar, afsonalar va rivoyatlar nafaqat xalq xotirasining mahsuli, balki uning ma'naviy tarbiyasini shakllantiruvchi qadriyatlar tizimiga aylangan. Masalan, hind olamining eng qadimiy folklor durdonalaridan biri bo'lgan "Panchatantra" (miloddan avvalgi II asr) o'z davrida axloqiy o'gitlar, ijtimoiy tajribalar va hayotiy donishmandlikni yosh avlodga yetkazishning eng samarali vositasi bo'lib xizmat qilgan (Bavajan & Shankar Yadav, 2024). Bu kabi namunalar hikoya san'ati qadimiy jamiyatlarda naqadar e'tiborli o'rin tutganini ko'rsatadi.

XX asrga kelib pedagogika fanining modernizatsiyalashuvi, inson psixologiyasini chuqurroq anglashga qaratilgan ilmiy izlanishlar natijasida hikoya qilishga yangicha yondashuv shakllandi. Tadqiqotchilar "hikoya insoniyatning umumiy merosiga chuqur singigan bo'lib, u o'qitish kasbining poydevorini tashkil etadi" degan fikrni ilgari surar ekanlar, inson tafakkuri voqeaviy bayonni abstrakt ma'lumotga nisbatan tezroq qabul qilishini alohida ta'kidlaydilar (Bavajan & Shankar Yadav, 2024). Zero, inson ongining badiiy obrazlar, syujet dinamikasi va voqelikni ketma-ket idrok etishga moyilligi – hikoya qilishning didaktik qudratini belgilab beradi.

Shu bois badiiy hikoyalardan ta'lim jarayonida foydalanish zamonaviy pedagogika tadqiqotlarida maxsus yondashuv sifatida shakllanib, "narrativ pedagogika" nomi bilan mustaqil konsepsiyaga aylangan. Bu konsepsiya dars jarayonini shunchaki axborot berish emas, balki mazmunni voqeaviy shaklda talabaning ruhiy-idroki bilan uyg'unlashtirish jarayoni sifatida talqin qiladi.

So'nggi o'n yilliklarda esa hikoya aytish san'ati yangi bosqichga ko'tarilib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida "raqamli hikoya aytish"

(digital storytelling) shaklida namoyon bo'la boshladi (UNESCO, 2017). Ushbu yondashuv an'anaviy hikoya qilishning estetik va tarbiyaviy kuchini zamonaviy multimediyaviy vositalar bilan boyitdi; natijada voqeani nafaqat aytish, balki ko'rish, eshitish va interaktiv tarzda his qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu esa hikoya san'atini zamonaviy ta'limning eng moslashuvchan, ham estetik, ham texnologik jihatdan boy metodlaridan biriga aylantirdi.

Hikoya qilish qadimiy pedagogik meros bo'lishiga qaramay, uning ta'lim metodikasi sifatidagi haqiqiy salohiyati aynan so'nggi bir asr davomida yanada chuqur anglana boshladi. Xususan, ingliz tilini o'rgatishda kommunikativ yondashuv (Communicative Language Teaching) keng qo'llanila boshlagach, hikoya asosidagi mashg'ulotlar til o'rganish jarayonining markaziy unsurlaridan biriga aylandi. Zero, hikoya – talaffuz, lug'at boyligi, grammatik tuzilma va nutq turlarini yagona mazmuniy oqimda uyg'unlashtira oladigan, o'quvchini erkin muloqotga chorlaydigan demokratik vositadir.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hikoya aytish jarayoni muallif (o'qituvchi) bilan talaba o'rtasida sun'iy masofani qisqartiradi. O'qituvchi dars jarayonida matn muallifining sovuq va rasmiy mavqeidan chiqib, jonli hikoya aytuvchiga aylanadi; bu esa uning mavqeini yanada tabiiy, yaqin va ishonchli figura sifatida namoyon etadi (Stanley & Dillingham, 2011). Shunday qilib, hikoya qilingan dars – bu o'quvchilarning idrokiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan, ularni mazmundan chetga chiqarmay, darsning o'zagi bilan bog'lab turadigan kuchli metodik omilga aylanadi.

Hikoya qilishning kommunikativ yondashuv bilan uyg'unlashuvi – tilni o'rgatishni faqat qoidalar yig'indisi sifatida emas, balki mazmun va ma'no oqimidan iborat tirik jarayon sifatida talqin etayotgan zamonaviy filologiya uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki hikoya o'quvchini tinglovchi, kuzatuvchi, talqin qiluvchi va muloqot ishtirokchisiga aylantiradi; tilni o'rganish esa

mazkur jarayon orqali tabiiy ravishda shakllanadi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida hikoya qilishning ta'limiy salohiyati nafaqat nazariy, balki amaliy didaktika nuqtayi nazaridan ham chuqur o'rganila boshladi. Bu davrda storytelling metodiga oid ilmiy adabiyotlar hikoya jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish zaruratini asoslab berdi. Jumladan, nutqiy materialni personajlar orqali jonlantirish, darsni "pre-storytelling" (tayyorgarlik), "while-storytelling" (eshitish jarayoni) va "post-storytelling" (tahlil va muhokama) kabi mantiqiy bosqichlarga ajratish, hikoya metodining samaradorligini sezilarli darajada oshiruvchi yondashuv sifatida ilgari surildi (Badalova, 2023).

Zamonaviy didaktika nuqtayi nazaridan hikoya – bu shunchaki matn emas, balki ma'lumotni idrok etishning psixologik jihatdan qulay shakli, talabaning motivatsiyasini kuchaytiruvchi va ijodiy tafakkurini faollashtiruvchi o'ziga xos jarayondir. Ilmiy tadqiqotlar hikoya asosida berilgan dars materiali talabaning e'tiborini jamlashga, tanqidiy fikrlashini rag'batlantirishga va tasavvur dunyosini kengaytirishga xizmat qilishini isbotlagan. Zero, hikoya strukturasidagi voqeaviylik, obrazlar dinamikasi va mantiqiy izchillik o'quvchini mazmundan chetga chiqarmasdan, dars oqimiga chuqurroq singdiradi.

Hikoyaning yana bir muhim jihati – uning madaniy kontekstni ochib berish imkoniyatidir. Har bir hikoya o'z xalqining urf-odatlarini, tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarini bilan sug'orilgan bo'ladi. Shu bois hikoya tinglayotgan talaba nafaqat tilni o'rganadi, balki mazkur til ortidagi madaniy olamni ham kashf qiladi. Bu jarayon madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishda, talabani

global muloqotga tayyorlashda muhim omilga aylanadi.

Bugungi ta'lim jarayonida hikoya mashg'ulotlari interfaol metodlarga aylangan bo'lib, ular o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi dialogni chuqurlashtiradi, real hayot vaziyatlarini simulyatsiya qilishga yordam beradi hamda madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini mustahkamlaydi (Stanley & Dillingham, 2011). Hikoya qilish shu tariqa zamonaviy pedagogikaning mazmunini boyituvchi, darsni jonlantiruvchi va til o'rgatishni hayotiy tajriba bilan uyg'unlashtiruvchi samarali metod sifatida o'z ahamiyatini tobora oshirib bormoqda.

Yuqorida bayon etilgan mulohazalar storytellingning nafaqat adabiy hodisa, balki til o'qitish jarayonida keng didaktik imkoniyatlarga ega bo'lgan pedagogik metod sifatidagi o'rnini yaqqol namoyon etadi. Hikoya qilish qadimiy og'zaki an'analardan tortib raqamli formatlarga uzluksiz taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan bo'lib, har bir davrda inson tafakkuriga ta'sir etuvchi kuchli vosita sifatida shakllangan. Mazkur metod tilni faqat grammatik struktura yoki lug'aviy birlik sifatida emas, balki mazmun, obraz, madaniy xotira va hissiy idrok uyg'unligi sifatida o'rgatishga xizmat qiladi.

Shu jihatdan, storytellingning kommunikativ yondashuv bilan qo'shilishi o'quvchini faol subyektga aylantirib, uning fikrlash doirasini boyitadi, madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini kengaytiradi va o'zlashtirish jarayonini tabiiy, hayotiy shaklda tashkil etadi. Xulosa qilib aytganda, hikoya qilish zamonaviy ta'limning estetik, intellektual va ma'naviy mazmunini boyituvchi, talaba shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi, o'qitish jarayonini insoniylashtiruvchi universal metod sifatida alohida ilmiy-ahamiyatga ega.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Badalova, L. K. (2023). The role of the storytelling approach in teaching English as a foreign language. *Scientific Journal of the Fergana State University*.

2. Bavajan, S., & Shankar Yadav, U. (2024). Storytelling in English language teaching: An essential pedagogical approach in the market of language. *Academy of Marketing Studies Journal*, 1-15.
3. Encyclopaedia Britannica. (2025). Oral tradition.
4. Lachman, O. (2017). *Why and how should you focus on good storytelling*. Retrieved from <https://medium.com/@Omritzek/why-and-how-should-you-focus-on-good-storytelling-2e9fa458902a>
5. Stanley, N., & Dillingham, B. (2011). *Making learners click with digital storytelling*. *Language Magazine*, 24–29.
6. UNESCO. (2017). *Digital storytelling as an innovative pedagogical tool*. Retrieved from UNESCO Inclusive Policy Lab: <https://en.unesco.org/inclusivepolicylab/e-teams/digital-story-telling-innovative-pedagogical-tool>